

Agar Siz muhojirlik qaydiga qo'yish uo ishga rasmiylashtirish jarayonida vositachilar xizmatidan foydalangan bo'lsangiz, Sizga qalbaki hujjatlar tayyorlab bergan bo'lishlari mumkin, va Siz bunda Rossiyaga kirish taqiqlanisi holatiga tushishingiz mumkin.

Muhojirlik xizmati tarmog'i bo'yicha Sizga taqiq qo'yilgan-qo'yilmaganligini Rossiya aviashirkatlari vakolatliklari yoki Rossiya IIV MMBB saytidan bilib olish mumkin: [services.fms.gov.ru/info-service.htm?sid=3000](http://services.fms.gov.ru/info-service.htm?sid=3000)

Kirishga taqiqlarning ko'pchilik qismii Rossiya IIV tomonidan qo'yiladi, lekin RFga kirishni boshqa xizmat va muassasalar ham taqiqlashlari mumkin: Rossiya FSBi (FXB), Rossiya Mudofaa vazirligi, Rossiya SBRi (maxsus tergov byurosi - MTB), Rossiya MVDi (XIV), Rossiya FSINi (jinoiyat ijrosi federal byurosi -JIFB), Rossiya FTSb (federal bojxona xizmati - FBX), Rosfinmonitoring. RFga kirish taqiqi borasidagi eng to'liq ma'lumotlar Rossiya FSB (FXB) Chegara xizmati ixtiyorida bo'ladi.

Rossiuaga kirish taqiqini bekor qilish mumkin:

- insonparvarlik asoslarida – bemorlik tufayli Rossiuadan belgilangan muddatda chiqib ketish imkoniyati yo'qligini isbotlash mumkin bo'lgan holatda, bemor qarindosh qarovida, boshqa favqulodda holatlarda;
- oilani birlashtirish uchun – agar Sizning oilangiz a'zolari (er/xotin, bolalar) RF fuqarolari bo'lgan holatda, Sizni ulardan ayjirish mumkin emas;
- muhojirlik avfi tartibida –amniya shartlari va bajarish muddatlari RF va fuqaro kelib chiqqah mamlakat o'rtasidagi bitim bilan aniqlanadi;
- yangi paydo bo'lgan holatlarga ko'ra –agar qaror xato chiqarilgan holatda;
- kirishga taqiq muddati tugagandan keyin;
- kirishga taqiq sabablari bartaraf etilgach.

RFga kirishga taqiqni Rossiya IIV Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha Bosh boshqarmasiga murojaat etib, bekor qilish mumkin. Kirishga taqiqni qayta ko'rib chiqishga oid arizani electron ko'rinishda Rossiya IIV saytidagi nusxadan foydalanib yuborish mumkin: [mvd.rf/request\\_main](mailto:mvd.rf/request_main). Arizaga kirishga taqiqni bekor qilish asoslarini tasdiqlaydigan

hujjatlarni ilova qilish zarur: bolalar-RF fuqarolari tug'ilganligi borasida guvohnomalar, nikoh qaydi borasidagi guvohnoma, bemorlik haqidagi ma'lumot va hokazolar.

RF ga kirishga taqiq qarorini qayta ko'rish rad etilganda, sudga shikoyat etish mumkin, bunda norozilik arizasini shaxsan yo qonuniy vakil yoki himoyachu orqali berish mumkin. Norozilik arizasini kirishni taqiqlagan Muhojirlik masalalari hududiy boshqarmasi joylashgan erdagi sudga berish zarur.

## 2. Ma'muriy javobgarlik

Agar Siz:

- muhojirlik qaydi (registrasiya)ga qo'yish bildiruvini rasmiylashtirmagan bo'lsangiz;
- polisiya ushlaganda zarur hujjatlaringiz bo'lmaganda;
- muhojirlik kartasida kelish maqsadini yolg'on ko'rsatgan bo'lsangiz;
- zarur hujjatsiz ishlagan bo'lsangiz yo patentda ko'rsatilmagan ixtisos bo'yicha ishlagan bolsangiz;
- muhojirlik qaydiga qo'yishda yolg'on ma'lumotlar ko'rsatgan bo'lsangiz,

Sizni 5000-7000 rublga jarima qilishadi va, RFdan chiqarib yuborishlari mumkin, (RF MH Kodeksining 18.8 m. 3 q, 18.10 m. , 19.27 m.3q. lariga muvofiq).

**Leningrad viloyati Slansev, Kingisepp, Lomonosov va Viborg rayonlari hududining ma'lum qismi chegara mintaqasiga kiradi – chet ellik fuqarolar chegara mintaqasida bo'lish va o'tish qoidalarini buzishsa, 500 dan 1000 rublgacha jarimaga tortilishlari, balki RF hududidan ma'muriy chiqarib yuborilishlari mumkin (RF MH Kodeksining 1.1 cm.18.2 m. 1.1 q. ).**

Muhojirlik sohasidagi ma'muriy qonunbuzarliklar uchun jasoni sud belgilaydi. Siz sud majlisida himoyachi xizmatidan foydalanishingiz mumkin. Sizing talabingizga ko'ra Sizga tarjimon berishlari zarur. Sud qarorini Sizga tushunarli tilda etkazishlari zarur. Siz sud qarori ustidan yozma qarorni olish vaqtidan boshlab 10 kun davomida shikoyat qilishingiz mumkin.

RFdan chiqarib yuborish mustaqil chiqib ketish yo'li bilan mumkin – chet ellik fuqaro hisobiga, Rossiya IIV MMBning Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati BBning tegishli bildiruvi bilan.

Agar Sizda shaxsni tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, yo registrasiya yo'q bo'lsa, yoki Siz qayta huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsangiz – sud Sizni SVSIG (chet ellik fuqarolarni vaqtincha tutib turish markazi) ga loylashtirish uchun qaror chiqarishi mumkin.

Agar Sizni SVSIGga joylashtirishsa – o'z hujjatlaringizni iloji boricha tezroq tiklash uchun hamkorlik qiling: chet ellikning shaxsi va fuqaroligini aniqlash imkoni bo'lmagan holatda, SVSIGda bo'lish 2 yilgacha davom etishi mumkin. Albatta o'z mamlakatingiz konsuli bilan bog'laning yoki ijtimoiy tashkilotlarga bepul yordam so'rab murojaat qiling.

## Rossiya IIV BBning Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha 1- SVSIGi:

Sankt-Peterburg, Krasnoe Selo, Kingisepp shossesi, 51A  
8 (812) 749-90-29, 8 (812) 749-90-34, 8 (812) 417-29-48  
elektron pochta – [suvsig-spb@mail.ru](mailto:suvsig-spb@mail.ru)

## Rossiya IIV BBning Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha 2- SVSIGi:

Leningrad viloyati, Gatchina sh., Mariburg, promzona 2, 3 uchastka, tel.: 8 (813) 716-00-94

SVSIGga joylashtirish holatida Sizga Ijtimoiy nazorat komissiyasi (INK-ONK) yordam berishi mumkin. INK a'zolari chet elliklarni tutib turish sharoitini tekshirish huquqiga egalar, shuningdek, Sizga bepul huquqiy yordam ko'rsatishlari mumkin.

**Leningrad viloyati Ijtimoiy nazorat komissiyasi:** leningradskajaoblast.onk.su 8 (911) 955-08-52

## 3. Jinoiy javobgarlik

Qalbaki hujjatlardan foydalanish va ularni tayyorlash uchun chet ellik fuqarolar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Hujjatni qakbakilashtirish 2 yil muddatga ozodlikdan mahrum etish yoki cheklash bilan jazolanishi mumkin. Qalbaki hujjatlardan foydalanish 80 ming rublgacha jarima bilan yo 6 oy muddatga hibsga olish bilan jazolanadi (RF JKning 327m.).

**Vositachilarga murojaat etmang – ular rasmiylashtirgan hujjatlar qalbaki bo'lishi mumkin.**

Unga nisbatan kirishga taqiq qo'yilgani e'lon qilingani o'ziga ma'lum bo'lgan chet ellik fuqaroning RF chegarasini kesib o'tishi, 4 yil muddatgacha ozodlikdan mahrum etish, yoki 300 ming rublgacha jarima bilan jazolanadi (RF JKning 322 m.2q).

Shet ellik fuqaroning kelgan joyida qalbaki qaydga qo'yishi qabul qilayorgan tomonni 100 mingdan 500 ming rublgacha jarimaga tortishga, yoki 3 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etishga olib borishi mumkin (RF JKning 322.2 m.)

## Foydali axborot resurslari

**migrantlenobl** – mehnat muholirlari va ularning oila a'zolari uchun mobil ilova va sayt - «Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!»

**migrussia.ru** – «Muhojirlar va muhojirlik: axborot portali» (muhojirlar uchun moslashish va huquqiy qo'llov bo'yicha maslahatlar)

**гвм.мвд.рф** – RF IIV Miholirlik masalalari bo'yicha Bosh boshqarmasining rasmiy sayti

## Bepul huquqiy yordam

**БФ «ПСП-фонд»**

sayt: [psp-f.org](http://psp-f.org)

tel: 8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09



Комитет по местному самоуправлению,  
международным и  
межконфессиональным отношениям  
Ленинградской области



migrantlenobl

## MUHOJIR MAKTABI

**Leningrad viloyatiga  
xush kelibsiz!**

**Polisiya bilan hamkorlik  
Qonunchilikni buzganligi  
uchun javobgarlik**

**Mehnat muhojirlariga maslahatlar**

Авторы-составители: Якимов А.Н., Хлызова Д.В.  
Редактор: Панич Б.Л.



БФ «ПСП-ФОНД»

Буклет «Взаимодействие с полицией. Ответственность за нарушение законодательства. Советы трудовым мигрантам» (на узбекском языке).

Разработан БФ «ПСП-фонд» в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, международным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.

## POLISIYA BILAN HAMKORLIK

Agar Siz jinovat guvohi yo qurboni bo'lsangiz, polisiyaga murojat qiling: **stasionar telefonda 02 raqamiga, mobil telefonda - 102 yoki 112 ga, sayt- www.мвд.рф**

Polisiya xodimlarining vazifasi – huquq-tartibotni saqlash, millati, irqi, dini va boshqa taassubligidan qat'iy nazar fuqarolarning huquq va erkinligini gimoya etish.

## HUJJAT TEKSHIRISH

Xizmat vazifasini bajarish paytida bo'lgan polisiya xodimlarigina hujjat tekshirish huquqiga egadirlar. Ular polisiya kiyimida bo'lishlari va ularda maxsus ko'krak nishoni (jeton) bo'lishi kerak – **uni eslab oling va raqamini yozib oling**. Polisiyachi Sizga murojaat etganda o'zining unvonini, familiyasini aytishi, Sizning talabingiz bilan o'zining guvohtomasini ko'rsatishi, hujjatlarni tekshirish sababi va maqsadini tushuntirishi zarur («Polisiya haqidagi» qonunning 5m. 4q.).

**Doimo o'zingiz bilan olib yurishingiz zarur:**

- pasport
- muhojirlik kartasi
- muhojirlik qaydi (registrasiya)ga qo'yilganlik haqidagi bildiruv
- oldindan soliq to'lovlarini to'langanligi borasidagi cheki bilan ishlash patenti
- amaldagi ixtiyoriy (DMS) yoki majburiy (OMS) tibbiy sug'urta polisi.

**Albatta bu hujjatlarning nusxasini tayyorlab oling va ularni aslidan alohida saqlang – agar Siz hujjatlarni yo'qotsangiz, Sizga ularni tiklash oson bo'ladi.**

Polisiya xodimida Sizning hujjatlaringiz haqiqiylikiga shubha paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatda u Sizdan ma'lumotlar qaydi bazasidan hujjatlarni tekshirish uchun u bilan yaqindagi polisiya punktiga borishni so'raydi.

Agar bu sodir bo'lsa, qarindoshlaringiz yoki do'stlaringizga qo'ng'iroq qiling va qaerdaligingizni va kim bilan gaplashayotganingizni xabar bering. Kimdir Sizga nima bo'layotganini bilishi juda muhimdir.

Unutmang - pora berish jinoyi ish sanaladi (faqat polisiyachi uchun emas, balki pora berayotgan odam uchun ham)! Polisiyachilarga pul bermang!

## USHLASH HOLATIDA

Ushlangan odamning telefonda gaplashish huquqi bor. («Polisuya haqidagi» qonunning 14m. 7q.).

Ushlanish haqida protocol tuziladi, unda polisiya xodimi quyidagilarni yozadi:

- protocol tuzilishi sanasi, vaqti va joyi;
  - protocol tuzgan polisiya xodimining familiyasi va nomi nasabi;
  - ushlangan kishi haqida ma'lumot, sanasi, vaqti va joyi, ushlanish asosi va sabablari («Polisuya haqidagi» qonunning 14m. 14q.).
- Ushlanish haqidagi protocolga uni tuzgan polisiya xodimi imzo chekadi. Bundan so'ng, agar qoidabuzarlik aniqlansa, muhojirlik masalalari bo'yicha xodim tomonidan **ma'muriy qonunbuzarlikka oid protocol tuzilishi zarur**. Agar Siz protocol mazmuniga rozi bo'lmasangiz – yozing «Protokoldan rozi emasman» va nega ekanligini ko'rsating. Masalan: «chunki protokolda keltirilgan harakatlarni qilganim yo'q». Agar Siz ruschani yaxshi tushunmasangiz va Sizning so'rovingiz bilan tarjimon hozirlashmasa, Siz buni protokolda yozishingiz mumkin. Masalan: «rus tilidagi protokolni tushunmayman». Shuningdek Siz buni protokolda o'z tilingizda yozishingiz mumkin.

Agar Siz protokolni imzolashni rad etsangiz, polisiya xodimi bu borada albatta protokolda yozish zarur («Polisuya haqidagi» qonunning 14m. 15q.).

Sizga albatta ushlanish haqidagi protocol nusxasini berishlarini so'rang – polisiyachilar Sizning talabingizga ko'ra buni bajarishlari zarur («Polisuya haqidagi» qonunning 14m. 15q.).

**Ushlanish haqidagi protocol Sizning jarima to'lashingiz shartligini anglatmaydi. Jarima faqat sud qarori yoki muholirlik masalalari bo'yicha boshqarma boshlig'i qarori bilan tayinlanishi mumkin. Siz ish ko'rish jarayonida qatnashishingiz zarur.**

Sud qarorigacha fuqaro 48 soatdan ko'p muddatga ushlanishi mumkin emas. Ushlangan kishi himoyachi talab etishi mumkin, shuningdek, agar rus tilini yaxshi bilmasa, tarjimon ham.

Polisiya xodimlarining Sizning hujjarlaringizni jarima yo boshqa bir to'lov uchun garovga olib qo'yishga huquqlari yo'q – bo noqonuniy.

Agar Sizni noqonuniy ushlashsa yoki polisiyada noqonuniy tutib turishsa, **Ijtimoiy nazorat komissiyasiga (IHK- ONK) murojaat qiling. INK a'zolari chet ellik fuqarolarni tutib turish sharoitini tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek Sizga bepul huquqiy yordam ko'rsatishlari mumkin.**

**Leningrad viloyari Ijtimoiy nazorat komissiyasi:**

leningradskajaoblast.onk.su 8 (911) 955-08-52

## REYDLAR

Maxsus reydlar paytida Sizning hujjatlaringizni tekshirishlari mumkin. Polisuya va Muhojirlik masalalari xodimlari passport, muhojirlik kartasi, muhojirlik qaydiga (registrasiya) qo'yishga oid bildiruv, tibbiy polisini tekshirishadi. Shuningdek, amalda ishlayotgan joyi va vazifasi hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga tog'ri kelish-kelmasligini tekshirishadi.

Tekshirish natijalari bo'yicha xodimlar akt tuzishadi va, agar, qonunbuzarlik aniqlangan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik haqida protocol tuzishadi yoki ma'muriy huquqbuzarlik haqida ish ochishadi. Akt yo protokolning bir nusxasini albatta gumonlanayotgan kishiga berilishlari zarur.

Protocol tuzilishi Siz albatta jarima to'lashingiz zarurligini anglatmaydi. Sizga **ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi ish borasidagi qarorni berishlari zarur**, Siz uning ustidan 10 kun davomida sudga shikoyat qilishingiz mumkin.

## POLISIYA XODIMLARI HARA KATIGA NISBATAN SHIKOYATLAR

Agar polisiya xodimlari Sizning huquqlaringizni buzishsa, arizangizni qabul qilishni istashmasa, o'z vazifalarini bajarishmasa/ pora talab qilishsa yoki zo'rvonlik qilishsa, Siz davlat yoki ijtimoiy tashkilotlarga yordam so'rab murojaat qilishingiz mumkin:

- IIV BB, 112 yoki 02ga telefon qilib;
- eng yaqin polisiya bo'limiga;
- RF IIV eng yaqin rayon bo'limiga.

**RF IIVning «Горячая линия»si («Qaynoq tarmoq»):** 8 (800) 222-74-47

**RF IIV BBning Sankt-Peterburg sh. va Leningrad viloyari bo'yicha «Ishonch telefoni»:** 8 (812) 573-21-81

**RF IIV BBning Sankt-Peterburg sh. va Leningrad viloyari bo'yicha Navbatchi qismi:** 8 (812) 573-20-49

Polisiya xodimlari sodir qilgan jinoyatlar ustidan **Rossiya IIV BBning ichki xavfsizlik Tezkor-qidiruv qismiga** shikoyat qilishingiz mumkin: 8 (495) 667-07-30.

Polisiya xodimlari harakat qilmagan holatlarda, jinoyatga oid arizani qabul qilishni rad etishganda, polisiya xodimlari faoliyati ustidan shikoyatni ko'rish tartibi buzilganda Siz **Leningrad**

**viloyati prokuraturasiga** murojaat qilishingiz mumkin: 8 (812) 429-77-55 prokuratura-lenobl.ru Sankt-Peterburg, Torjovskaya k. 4 uy.

Polisiya xodimlari sodir etgan korrupsion jinoyatlar tergovi bilan **RF Tergov komitetining Leningrad viloyati bo'yicha Bosh Tergov boshqarmasi** shug'ullanadi: 8 (800) 200-97-80 lenobl.sledcom.ru

**Leningrad viloyatidagi Inson huquqlari bo'yicha vakil:** 8 (812) 296-60-13 www.ombudsman47.ru

Siz bu muassasalarning har biriga telefon orqali murojaat etishingiz, shaxsan o'zingiz yozma ariza topshirishingiz yoki electron murojaat yo'llashingiz mumkin. Sizning yozma murojaatingizga shikoyat berilgandan so'ng 30 kundan kechiktirmasdan javob berishlari zarur.

## QONUNCHILIK BUZILGANI UCHUN JAVOGBARLIK

Chet elliklar tomonidan muhojirlik sohasidagi qonunlar buzilishi uchun qattiq javobgarlik belgilangan. Siz Rossiya qonunlariga rioya qilishingiz va har qanday qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymasligingiz zarur!

**1. RFga kirishga ijozat bermaslik**

Agar Sizda nibbiy sug'urta polisi bo'lmasa, yoki agar Sizda o'talmagan sudlanganlik bo'lsa – Sizni RFga kiritmaslik huquqiga egadirlar.

Agar Sizning to'lanmagan hisoblaringiz, soliq va jarimalar bo'lsa – Siz ularni to'lamaganingizgacha Sizni Rossiyaga kiritishmaydi.

Sisni Rossiyaga kirishingizga ijozat berishmaydi (3-10 yilga), agar Siz:

- ishlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirmasdan Rossiyada 180 sutkalik davr orasida hammasini qo'shganda 90 sutka turgan bo'lsangiz;
- 2 va undan ko'p ma'muriy qonunbuzarlik qilgan bo'lsangiz va buning uchun 3 yil mobaynida jarimaga tortilgan bo'lsangiz;
- muhojirlik rejimini buzganlik uchun 1 yil mobaynida 2 va undan ko'p marta ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsangiz;
- RFda turish qonuniy muddatini 30 sutkadan ortiqroqqa buzgan bo'lsangiz;
- RFdan oldin chiqarib yuborilganlar yo deport qilinganlarga – chiqarib yuborilish yo deport vaqtdan boshlab, 5 yilgacha RFga kirishga ijozat berilmaydi. Agar Sizni davlat hisobiga deport qilishgan yo chiqarib yuborishgan bo'lishsa – Siz bu xarajatlarni RFga to'lashingiz zarur, yo'qsa, Sizni hatto kirish taqiyi muddati tugagandan keyin ham mamlakatga kiritishmaydi.